



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI



*2024- yil yanvar-may oylari
uchun dastlabki ma'lumot*

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASI

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo
statistikasi bo'limi:
Tel.: (99879) 223-50-43*



TASHQI SAVDO AYLANMASI



Navoiy viloyatida olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Viloyatimizda bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024- yil yanvar-may oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 617,4 mln. AQSH dollariga etdi va 2023- yilning mos davriga nisbatan 120,4 % ni tashkil etdi.



TASHQI SAVDO AYLANMASI (yanvar-may 2024 y., mln. AQSH dollari)



Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: **617,4** +20,4 %

(2023- y.: 512,6)



Saldo

2024- y.: **219,0** (2023- y.: -40,8)



Eksport

2024- y.: **418,2** +77,2 %

(2023- y.: 235,9)

TSA'dagi ulushi, %da



67,7



Import

2024- y.: **199,2** -28,0 %

(2023- y.: 276,7)



32,3

Tashqi savdo aylanmasi – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 418,2 mln. AQSH dollariga (2023- yilning yanvar-may oylariga nisbatan 177,2 % ni tashkil etdi) va import hajmi 199,2 mln. AQSH dollariga (72,0 % ni tashkil etdi) yetdi. Hisobot davrida 219,0 mln. AQSH dollari qiymatida musbat tashqi savdo balansi qayd etildi.



NAVOIY VILOYATI BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-may, mln. AQSH dollari)











<p>Fransiya</p> <p>TSA – 312,1</p> <p>Eksport: 311,1 Import: 1,0</p> <p> 50,6 %</p>	<p>Rossiya</p> <p>TSA – 90,2</p> <p>Eksport: 36,9 Import: 53,3</p> <p> 14,6 %</p>	<p>XXR</p> <p>TSA – 62,1</p> <p>Eksport: 1,7 Import: 60,4</p> <p> 10,1 %</p>	<p>Qozog‘iston</p> <p>TSA – 28,2</p> <p>Eksport: 7,5 Import: 20,7</p> <p> 4,6 %</p>	<p>Turkiya</p> <p>TSA – 23,3</p> <p>Eksport: 13,3 Import: 10,0</p> <p> 3,8 %</p>
<p>Daniya</p> <p>TSA – 12,2</p> <p>Eksport: 10,9 Import: 1,3</p> <p> 2,0 %</p>	<p>Yaponiya</p> <p>TSA – 12,0</p> <p>Eksport: - Import: 12,0</p> <p> 1,9 %</p>	<p>Afg‘oniston</p> <p>TSA – 11,5</p> <p>Eksport: 11,5 Import: -</p> <p> 1,8 %</p>	<p>Germaniya</p> <p>TSA – 8,7</p> <p>Eksport: - Import: 8,7</p> <p> 1,4 %</p>	<p>Qirg‘iz Respublikasi</p> <p>TSA – 6,1</p> <p>Eksport: 5,7 Import: 0,4</p> <p> 1,0 %</p>











Navoiy viloyati jahonning 54 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi Fransiyada (50,6 %), Rossiyada (14,6 %), XXRda (10,1 %), Qozog‘istonda (4,6 %) va Turkiyada (3,8 %) qayd etilgan.



NAVOIY VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI


(yanvar-may, mln. AQSH dollari)

Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
Fransiya	61,4	160,9	312,1
 Eksport	60,4	159,2	311,1
Import	1,0	1,7	1,0
Rossiya	97,5	82,4	90,2
 Eksport	39,1	9,2	36,9
Import	58,4	73,2	53,3
XXR	66,6	78,0	62,1
 Eksport	0,8	4,8	1,7
Import	65,8	73,2	60,4
Qozog'iston	52,1	30,4	28,2
 Eksport	8,8	6,8	7,5
Import	43,3	23,6	20,7
Turkiya	26,6	78,0	23,3
 Eksport	15,8	4,8	13,3
Import	10,8	73,2	10,0
Daniya	-	3,7	12,2
 Eksport	-	2,7	10,9
Import	-	1,0	1,3
Yaponiya	1,9	6,3	12,0
 Eksport	-	-	-
Import	1,9	6,3	12,0
Afg'oniston	5,6	8,2	11,5
 Eksport	5,6	8,2	11,5
Import	-	-	-
Germaniya	5,7	4,4	8,7
 Eksport	-	-	-
Import	5,7	4,4	8,7
Qirg'iz Respublikasi	6,9	5,8	6,1
 Eksport	5,9	5,0	5,7
Import	1,0	0,8	0,4

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	Eron	5,9	3,4	5,8
	<i>Eksport</i>	0,8	0,6	3,6
	<i>Import</i>	5,1	2,8	2,2
	Litva	7,8	7,3	4,7
	<i>Eksport</i>	6,6	1,9	3,6
	<i>Import</i>	1,2	5,4	1,1
	Koreya Respublikasi	9,7	10,0	4,4
	<i>Eksport</i>	-	0,1	-
	<i>Import</i>	9,7	9,9	4,4
	Turkmaniston	5,9	1,0	4,3
	<i>Eksport</i>	4,7	0,9	3,2
	<i>Import</i>	1,2	0,1	1,1
	Buyuk Britaniya	0,1	1,5	4,2
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,1	1,5	4,2
	AQSH	2,0	1,2	3,0
	<i>Eksport</i>	0,4	-	1,6
	<i>Import</i>	1,6	1,2	1,4
	Italiya	1,0	6,6	2,9
	<i>Eksport</i>	0,1	0,9	-
	<i>Import</i>	0,9	5,7	2,9
	Chexiya	0,8	4,7	2,6
	<i>Eksport</i>	-	-	-
	<i>Import</i>	0,8	4,7	2,6
	Tojikiston	1,8	2,3	2,2
	<i>Eksport</i>	1,8	2,3	-
	<i>Import</i>	-	-	2,2
	Hindiston	10,2	16,1	2,1
	<i>Eksport</i>	-	10,9	-
	<i>Import</i>	10,2	5,2	2,1




NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI (2024- yil yanvar-may, ming AQSH doll.)*



Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 62,7 % ulush bilan 387 150,9 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,1 % ulush bilan 915,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

NAVOIY VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 21,9 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 108,3 % ni tashkil etdi.



Boshqa xorijiy davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yilning yanvar-may oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 24,3 % ga ko'paydi va jami tashqi savdo aylanmasidagi ulushi 78,1 % ni tashkil etdi.

Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-may holatiga ko'ra, 135,3 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 59,0 mln. AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 76,3 mln. AQSH dollari qiymatida qayd etildi.




NAVOIY VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-may, ulushi, % da)




Navoiy viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi eng yuqori hajmlari Rossiya (14,6 %), Qozog'iston (4,6 %) hamda Qirg'iz Respublikasi (1,0 %) davlatlari bilan qayd etildi.

NAVOIY VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-may, mln. AQSH dollari)



 Navoiy viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 125,6 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 51,2 mln. AQSH dollari, import hajmi esa 74,4 mln. AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya, Qozog'iston, Qirg'iz Respublikasi va Belarus) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



NAVOIY VILOYATINING EKSPORTI

(2024- yil yanvar-may)




Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o‘shishiga ko‘maklashadi va bu o‘z navbatida ma’lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar tomonidan 418,2 mln. AQSH dollari qiymatidagi (2023- yilning mos davriga nisbatan 77,2 % ga ko‘paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta’minlandi.



XSST* BO‘YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-may ulushi % da)



Navoiy viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko‘rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o‘rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o‘rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o‘z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo‘yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o‘rtasida o‘tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.




NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami eksport	235,9	418,2	110,7	177,2	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	13,7	14,1	154,3	102,7	5,8	3,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	1,6	12,7	5,8	8,1 m.	0,6	3,0
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	6,8	11,9	4,9 m.	175,5	2,9	2,8
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	-	1,2	-	-	-	0,3
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	174,5	317,4	139,1	181,8	74,0	75,9
Sanoat tovarlari	32,3	51,0	76,1	158,0	13,7	12,2
Mashinalar va transport asbob-uskunalari	0,5	0,5	-	95,5	0,2	0,1
Turli xil tayyor buyumlar	6,1	9,0	96,5	148,6	2,6	2,2
Xizmatlar	0,4	0,4	26,5	92,6	0,2	0,1

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,9 % ni tashkil etib, ular asosan katta ulush kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (75,9 %), sanoat tovarlari (12,2 %), oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (3,4 %) hissasiga tog'ri kelmoqda.

NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI
(2024- yil yanvar-may)


 XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14 113,9	102,7
Sabzavotlar va mevalar	4 352,6	80,3
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	8 659,6	105,3
Sut mahsulotlari va qush tuxumlari	1 101,7	-
Ichimliklar va tamaki	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	12 667,9	8,1 m.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	2 300,2	4,8 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	3 080,3	3,0 m.
Moy olinadigan urug'lar va moy olinadigan mevalar	236,3	19,1 m.
Metall rudalari va metall parchalari	7 051,1	143,9 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	11 912,5	175,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	11 912,5	175,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 195,9	-
O'simlik moylari va yog'lari, xom, tozalangan yoki fraksiyalangan	1 195,9	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	317 375,5	181,8
Noorganik kimyo moddalari	312 148,2	182,7
Birlamchi shakldagi plastmassalar	0,6	-
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	4 409,5	2,2 m.
O'g'itlar	328,9	6,1 m.
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	27,8	262,0 m.
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	19,3	1,3
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	441,2	2,7 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023-yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	51 035,9	158,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	33 805,1	141,4
Rangli metallar	8 746,7	3,7 m.
Cho'yan va po'lat	130,7	111,6
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	8 112,6	145,5
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	207,0	121,5
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	2,0	39,1
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	31,8	504,6 m.
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	452,4	95,5
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	62,0	143,8
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va asbob-uskunalar va ularning detallari	143,0	2,5 m.
Elektr mashinalari, apparatlar va asboblari va ularning elektr qismlari	247,4	66,6
Turli xil tayyor buyumlar	9 037,5	148,6
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	8 078,6	139,4
Har xil tayyor buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	569,3	2,1 m.
Poyabzal	278,6	46,7 m.
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	111,0	255,7 m.
Xizmatlar	372,5	92,6
Moliyaviy xizmatlar	252,0	102,1
Transport xizmatlari	68,5	2,0 m.
Safarlar	52,0	42,8

Navoiy tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024- yilning yanvar-may oylarida MDH mamlakatlariga 59,0 mln. AQSH dollari qiymatidagi tovar va xizmatlar eksport qilinib, jami eksportning 14,1 % ini tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-may oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Fransiya, Rossiya, Turkiya, Afg'oniston, Daniya, Qozog'iston va Qirg'iz Respublikasi kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 94,9 % ni tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-may)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Egallab turgan o'ri
	2023 y.	2024 y.		
Fransiya	159 247,9	311 153,0	195,4	1
Rossiya	9 218,6	36 895,4	4,0 m.	2
Turkiya	18 869,8	13 319,1	70,6	3
Afg'oniston	8 212,8	11 470,2	139,7	4
Daniya	2 668,4	10 940,5	4,1 m.	5
Qozog'iston	6 853,2	7 501,0	109,5	6
Qirg'iz Respublikasi	5 040,4	5 675,2	112,6	7
Eron	601,9	3 649,1	6,1 m.	8
Litva	1 914,1	3 622,9	189,3	9
Turkmaniston	858,3	3 210,9	3,7 m.	10
Tojikiston	2 252,8	2 206,5	97,9	11
Xitoy Xalq Respublikasi	4 847,3	1 671,2	34,5	12
AQSH	2,7	1 650,5	613,6 m.	13
Belarus	1 925,8	1 153,4	59,9	14
Ukraina	140,9	1 078,4	7,7 m.	15
Ozarbajjon	291,5	677,8	2,3 m.	16
Pokiston	261,8	675,1	2,6 m.	17
Armeniya	68,9	629,5	9,1 m.	18
Kanada	0,0	234,9	-	19
Estoniya	52,2	137,5	2,6 m.	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI (2024- yil yanvar-may, ming AQSH doll.)*



Viloyatning eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Navoiy shahri 79,5 % bilan 332 403,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Uchquduq tumani 0,1 % bilan 444,0 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport va safarlar bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, tuman va shaharlari bo'yicha taqsimlanmagan.



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI




Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-may oylarida 4 912,8 tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 66,3 % ni tashkil etdi.

Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (54,2 %) hamda Afg'oniston (19,9 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-may oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 3 095,0 ming AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 58,4 % ni tashkil qildi va jami eksportdagi ulushi 0,7 % ni tashkil etdi.




MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI (2024- yil yanvar-may, o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p>Pomidor</p> <p>251,7 ming AQSH dollari</p> <p>322,0 tonna</p> <p> 39,8 % ↓</p>	<p>Piyoz</p> <p>373,0 ming AQSH dollari</p> <p>2 060,9 tonna</p> <p> 4,3 m. ↑</p>	<p>Uzum</p> <p>198,8 ming AQSH dollari</p> <p>165,5 tonna</p> <p> 13,6 % ↓</p>	<p>Yong'oklar</p> <p>124,1 ming AQSH dollari</p> <p>125,5 tonna</p> <p> 6,9 % ↓</p>
<p>Karam</p> <p>125,7 ming AQSH dollari</p> <p>340,4 tonna</p> <p> 83,2 % ↓</p>	<p>Bodring</p> <p>52,9 ming AQSH dollari</p> <p>69,0 tonna</p> <p> 65,5 % ↓</p>	<p>Sitrus mevalar</p> <p>10,6 ming AQSH dollari</p> <p>9,0 tonna</p> <p> 68,6 % ↓</p>	<p>Loviya</p> <p>987,8 ming AQSH dollari</p> <p>245,2 tonna</p> <p> 2,2 m. ↑</p>



MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-may)

Davlatlar	Tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Qozog'iston	3 945,9	1 677,5	54,2
 Afg'oniston	174,3	616,3	19,9
 Pokiston	70,9	371,6	12,0
 Xitoy Xalq Respublikasi	276,1	311,5	10,1
 Litva	193,1	46,8	1,5
 Latviya	122,0	38,0	1,2
 Estoniya	129,5	31,3	1,0
 Hindiston	1,0	2,0	0,1

* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-may oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Qozog'iston (54,2 %), Afg'oniston (19,9 %) va Pokiston (12,0 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan viloyat uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.


Xususan, 2024- yil yanvar-may oylari yakuni bo‘yicha 13 773,1 ming AQSH dollarilik to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 3,3 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 31,3 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (58,0 %), sintetik, jut tolalar (14,8 %) asosiy ulushni egallagan. Yil boshidan to‘qimachilik mahsulotlari dunyoning 10 ta davlatiga eksport qilindi.



TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI


(2024- yil yanvar-may, ming AQSH dollari)



Yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-may, ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 372,5 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,1 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 92,6 % ni tashkil etdi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (67,7 %), transport xizmatlari (18,4 %) va safarlar turizm xizmatlari (13,9 %) hissasiga to'g'ri kelgan.

import

NAVOIY VILOYATINING IMPORTI




2024- yilning yanvar-may oylarida import hajmi 199,2 mln. AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 72,0 % ni tashkil etdi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (40,7 %), sanoat tovarlari (27,4 %) hamda kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar (15,4 %) hisobiga to'g'ri keldi.



XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-may, ulushi, % da)



Tovar va xizmatlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-may oylarida import qilingan tovarlar hajmi 193,8 mln. AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi esa 5,4 mln. AQSH dollariga etdi.



NAVOIY VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI (yanvar-may, yillar kesimida)

XSST tarkibi	Mln. AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nis- batan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
Jami import	276,7	199,2	119,0	72,0	100,0	100,0
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	12,7	14,7	157,2	115,4	4,6	7,4
Ichimliklar va tamaki	-	-	-	-	-	-
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	4,3	3,8	103,8	88,0	1,6	1,9
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	0,5	0,6	5,8	113,5	0,2	0,3
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1,7	1,6	167,4	91,8	0,6	0,8
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	33,6	30,6	86,5	91,3	12,1	15,4
Sanoat tovarlari	70,8	54,6	116,1	77,1	25,6	27,4
Mashinalar va transport asbob- uskunalari	132,7	81,1	143,3	61,1	47,9	40,7
Turli xil tayyor buyumlar	10,8	6,8	91,8	63,3	3,9	3,4
Xizmatlar	9,6	5,4	161,8	56,4	3,5	2,7



XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-may)


XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	14 679,3	115,4
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	11 961,9	111,1
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	289,4	105,1
Sabzavotlar va mevalar	1 574,0	4,7 m.
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	289,6	84,1
Tirik hayvonlar	313,3	37,6
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	251,1	169,4
Ichimliklar va tamaki	40,2	98,0
Ichimliklar	40,2	98,0
Nooziq-ovqat xomashyo, yoqilg'idan tashqari	3 776,7	88,0
Probka va yog'och-taxtalar	781,2	137,8
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	447,0	116,8
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	563,8	3,7 m.
To'qimachilik tolalari va ularning chiqindilari	1 831,3	57,5
Tabiiy kauchuk	3,3	41,1
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	150,1	105,7 m.
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	601,7	113,5
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	596,8	118,9
Ko'mir, koks va briketlar	4,9	17,5
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	1 586,8	91,8
O'simlik moylari va yog'lari (xom, tozalangan yoki fraksiyalangan)	1 552,5	91,1
Hayvonlar va o'simliklar moylari va yog'lari, qayta ishlangan; hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan mumlar	34,3	145,1
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	30 611,6	91,3
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	1 246,8	127,0
Birlamchi shakldagi plastmassalar	9 069,9	76,6
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	12 405,3	124,5
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	146,6	8,5
Noorganik kimyo moddalari	4 058,5	104,9
Organik kimyo moddalari	1 832,3	115,5
Bo'yaydigan va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	1 627,9	52,1
O'g'itlar	3,3	5,9
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	221,0	57,6

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
Sanoat tovarlari	54 620,0	77,1
Cho'yan va po'lat	4 505,5	80,8
Metallardan tayyorlangan buyumlar, boshqa joyda tasniflanmagan	4 145,1	105,7
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1 782,3	2,3 m.
Rezina buyumlari, boshqa joyda tasniflanmagan	2 108,0	8,2
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	163,6	48,7
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar, boshqa joyda tasniflanmagan	1 207,4	149,2
Rangli metallar	40 696,3	121,5
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	11,6	7,0
Teri, teridan tayyorlangan buyumlar, mo'yna	0,2	-
Mashinalar va transport asbob-uskunolari	81 050,9	61,1
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	5 390,5	31,4
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	32 251,5	58,4
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	13 837,8	79,0
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	6 112,4	59,2
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	16 942,6	3,9 m.
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunolari	3 878,0	161,7
Kanslyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	114,0	13,7
Metallarni qayta ishlash mashinalari	2 524,1	120,5
Turli xil tayyor buyumlar	6 841,1	63,3
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	4 844,9	119,8
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	1 107,8	115,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunolari uchun armatura va mahkamlash moslamalari	706,8	12,4
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebel	88,6	97,4
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	57,2	79,1 m.
Poyabzal	26,2	40,9 m.
Yo'l anjomlari, sumkalar va shunga o'xshash konteynerlar	6,1	92,6
Fotografik apparatura, uskuna, ishlatiladigan materiallar va optik buyumlar, soatlar	3,5	3,6 m.
Xizmatlar	5 379,7	56,4
Transport xizmatlari	4 274,7	81,3
Safarlar (turizm xizmatlari)	28,2	4,6 m.
Boshqa xizmatlar	1 076,8	25,2

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

2024- yil yanvar-may oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 38,3 % ni tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 77,6 % ni tashkil etdi.

MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-may, mln. AQSH dollari, ulushi)



2024- yil yanvar-may oylarida Navoiy viloyati 50 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Xitoy Xalq Respublikasi, Rossiya, Qozog'iston, Yaponiya, Turkiya, Germaniya va Koreya Respublikasi) jami importning 85,1 % ini tashkil qiladi, bu 169,5 mln. AQSH dollarini tashkil etdi.



NAVOIY VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-may, % da)






NAVOIY VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI (yanvar-may)

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmdagi o'rni
	2023 y.	2024 y.		
Xitoy Xalq Respublikasi	73 151,0	60 453,1	82,6	1
Rossiya	73 222,4	53 340,6	72,8	2
Qozog'iston	23 580,6	20 663,0	87,6	3
Yaponiya	6 251,4	12 022,4	192,3	4
Turkiya	13 580,1	9 943,2	73,2	5
Germaniya	4 403,6	8 675,9	197,0	6
Koreya Respublikasi	9 873,5	4 434,7	44,9	7
Buyuk Britaniya	1 533,9	4 176,2	2,7 m.	8
Italiya	5 729,0	2 922,5	51,0	9
Chexiya	4 663,2	2 599,6	55,7	10
Eron	2 835,7	2 151,9	75,9	11
Hindiston	5 160,4	2 147,9	41,6	12
Latviya	18 572,4	1 515,0	8,2	13
AQSH	1 229,7	1 395,3	113,5	14
Polsha	1 821,7	1 391,8	76,4	15
Daniya	1 002,5	1 297,3	129,4	16
Estoniya	2 145,1	1 149,4	53,6	17
Litva	5 434,5	1 117,8	20,6	18
Turkmaniston	59,1	1 091,9	18,5 m.	19
Fransiya	1 700,4	963,3	56,7	20



NAVOIY VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI (2024- yil yanvar-may, ming AQSH doll.)



2023- y.


2024- y.

Viloyatning importi tarkibida eng yuqori ulushni Karmana tumani 60,7 % bilan 120 817,4 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa G'ozg'on shahri 0,2 % bilan 454,2 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-may, ming AQSH dollarida)




2024- yil yanvar-may oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 5 379,7 ming AQSH dollarini yoki jami import hajmining 2,7 % ini tashkil etdi va o'tgan yilning mos davriga nisbatan 56,4 % ni tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushi transport xizmatlari (79,5 %), safarlar (turizm xizmatlari) (0,5 %) va boshqa xizmatlar (20,0 %) dan iborat bo'ldi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-may oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 54 620,0 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 77,1 % ni tashkil etdi hamda importning umumiy hajmidagi ulushi 27,4 % ga yetdi.



SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR (2024- yil yanvar-may)

38 514,5 ming AQSH doll.
ulushi – 70,5 %



Rossiya

5 925,5 ming AQSH doll.
ulushi – 10,8 %



Xitoy Xalq
Respublikasi

5 048,8 ming AQSH doll.
ulushi – 9,2 %



Qozog'iston

1 289,6 ming AQSH doll.
ulushi – 2,4 %



Latviya

822,8 ming AQSH doll.
ulushi – 1,5 %



Turkmaniston



2024- yil yanvar-may oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmining Navoiy viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Rossiya 38 514,5 ming AQSH dollari (70,5 %), Xitoy Xalq Respublikasi 5 925,5 ming AQSH dollari (10,8 %) va Qozog'iston 5 048,8 ming AQSH dollari (9,2 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.